



BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MAVJUD HOLATI VA UNI TAHLIL QILISH

Yarashev Abrorjon Nuriddin o‘g‘li

Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Abrorjonyarashev5@gmail.com

Annotatsiya: Mamlakatimizda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uning sifatini oshirish va xalqaro standartlarga moslashtirish davr talabi bo‘lib, bu borada keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlarning muvaffaqiyati, avvalo, ta’lim-tarbiya jarayonining asosiy subyekti – o‘qituvchilarning kasbiy kompetentlik darajasiga bog‘liq. Shuning uchun ham bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan qurollantirish, o‘z sohasining yetuk mutaxassisi bo‘lib yetishishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Bo‘lajak o‘qituvchi, kasbiy kompetentlik, ta’lim tizimi, modernizatsiya, ta’lim texnologiyalari, tahlil, istiqbolli yo‘nalishlar, pedgogik mahorat.

So‘nggi yillarda oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, o‘quv rejalari va dasturlari zamonaviy talablarga moslashtirildi, yangi o‘qitish metodlari va texnologiyalari joriy etildi, talabalarning amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga e’tibor kuchaytirildi. Biroq, olib borilgan ishlar natijalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu borada hali yechimini kutayotgan muammolar mavjud. Xususan, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentlik darajasi zamonaviy talablarga to‘liq javob bermaydi, ularning pedagogik



mahorati, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalari, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga qiziqishlari yetarli emas.

O'zbekistonda ta'lim tizimini o'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasining milliy g'oyalari, talablari asosida tashkil etish, uni jamiyat taraqqiyoti istiqbollari va jahon andozalariga javob bera oladigan darajada bo'lishini ta'minlash bugungi kunning dolzarb masalasidir. Ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni o'tmish qoldiqlaridan tozalash va rivojlangan demokratik davlatlar darajasiga ko'tarish, jamiyat ravnaqi uchun yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash ta'lim tizimi xodimlarining umumiy vazifasidir. Shaxsni har tomonlama rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya tizimini nazariy-metodologik jihatdan qurollantirish – bugungi kunda pedagogika fanining bosh maqsadi sifatida belgilangan.

Bugungi kunda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish tizimi bir nechta omillar ta'sirida rivojlanmoqda:

Ta'lim tizimi yangilanishi: O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, yangi o'quv dasturlari va pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalari rivojlanmoqda. Bundan tashqari, zamonaviy o'quv metodlari, ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo'llash o'qituvchilarning kompetensiyalarini oshirishga qaratilgan.

Pedagogik amaliyotlar: Pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida pedagogik amaliyotning ahamiyati ortib bormoqda. Amaliyot (4+2) jarayonida bo'lajak o'qituvchilar o'quvchilar bilan to'g'ridan-to'g'ri ishlashni o'rganadilar, shuningdek, o'quv jarayonida innovatsion metodlarni qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar: Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini oshirishda yangi pedagogik texnologiyalar, masalan, flipped learning




(aynalangan dars), blended learning (aralash ta'lim), interaktiv o'quv vositalarini qo'llashning ahamiyati ortmoqda.

Bugungi xalqaro maydonda respublikamizning munosib o'rin egallashiga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, oliy ta'lim muassasalarida mutaxassis kadrlar tayyorlash, uning sifat va samaradorligini oshirish borasida ham so'nggi yillarda keng ko'lamli ishlar qilindi va qilinmoqda. Jumladan, tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning kasbiy mustaqilligi, ijodkorligi, tadbirkorligi, faolligi kabi xislatlarni tarkib toptirishga va oliy ta'limni tashkiliy va mazmun jihatdan takomillashtirishga katta e'tibor berilmoqda.

Mazkur paragrafda tadqiqotning asosiy tushunchalarining nazariy sharhi bayon etilib, raqamlashtirilgan ta'lim sharoiti bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish muammosining shakllanishi va takomillashuvining dialektik xususiyatini tahliliy tadqiq etish zarurati bilan bog'liq pedagogik shart-sharoitlar aniqlanadi. Bu muammo vizual vositalar asosidagi axborot ta'lim muhitining imkoniyatlari va uning dinamik rivojlanishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, ilmiy-metodik ta'minotning turli darajalarida o'rganishni taqozo etadi.

“Raqamlashtirilgan ta'lim sharoiti” deganda ta'minot, kommunikatsiya va axborot texnologiyalari, ta'lim resurslari va kompyuter vositalari majmui tushuniladi (1-rasmga qarang).

Raqamlashtirilgan ta'lim sharoitida axborot ta'lim resurslari





Tadqiqotlarimizning nazariy tahlili shuni ko'rsatdiki, ta'lim muassasasi o'quv jarayonini raqamlashtirish ta'limni intensivlashuviga olib keladi, ta'lim olish motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi, talabalarning bilish mustaqilligi va ijodiy faolligini rag'batlantiradi va o'rganilayotgan materialga qiziqishni oshiradi va rivojlantiradi, shu bilan barcha sharoitlarni yaratib, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan.

Raqamlashtirish sharoitida vizual vositalarga ko'nikish, texnologiyalarning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lganligi sababli, foydalanuvchilar va ularning ehtiyojlariga moslashish uchun vosita va qurollarni iste'molchi ehtiyojlariga moslashtirish zarur. Shuning uchun, bo'lajak o'qituvchi vizual vositalardan, o'z kasbiy faoliyatiga mos keladigan dasturiy qobiqlardan foydalana olishi kerak, lekin buning uchun axborot ta'lim muhitining axborot ta'lim va o'quv-metodik resurslari an'anaviy o'quv nashrlariga nisbatan adolat bilan qo'yiladigan standart metodik va didaktik talablarga javob berishi kerak. Shunga ko'ra, ilmiylik va ommaboplik talablari bilimlarni o'zlashtirishning ongliligi va tizimlilik, funksional validligi va mustahkamligiga xizmat qiladi.

Axborotlashgan ta'lim muhiti, adabiyotlarda ta'kidlanganidek, ta'limni takomillashtirishda boy imkoniyatlarga ega bo'lib, o'quv ma'lumotlarini taqdim etishning foydalanuvchilar uchun qiziqarli vizual vositalariga ega.

G.I.Kirilova o'z tadqiqotlarida axborot ta'lim muhitida vizual vositalardan foydalanishning metodik ta'minlash tizimini modellashtirish yondashuvlari bilan bog'liq bir qator juda muhim muammolarga to'xtalib o'tgan. Shaxslashtirish o'qituvchining axborot madaniyati bilan bog'liq muammo sifatida axborot-ta'lim muhitida o'quv-metodik resurslarni loyihalashtirish bilan bog'liq. Axborot ta'lim muhitining o'quv-metodik resurslarini loyihalashtirish ko'pincha stixiyali xarakterga ega bo'lib, bu ta'lim sifatining kafolatlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shaxslashtirish har bir ishlab chiquvchining, shu jumladan o'quv me'yorlari mualliflarining, loyihachi-pedagogning, tadqiqotchi-



pedagogning va uning metodik ta'minotni noyob tajriba-eksperimental amalga oshirishining muallifligini, shuningdek, tuzatish va takomillashtirishlarni amalga oshirgan, muvofiqlashtirish va ekspert ishlari bilan shug'illangan subyektlarning muallifligini qayd etishni nazarda tutadi. Uslubiy ta'minot tizimida uni loyihalashning har bir qadamiga axborot faktlarining relyatsion bazasi taqqoslanishi mumkin, u resurslarning o'ziga xos xususiyatlari, foydasi va samaradorligi to'g'risida ma'lumot beruvchi vakolatli jamoatchilik ekspertizasi funksiyalarini o'z ichiga olgan ko'p o'lchovli matritsa ko'rinishida tashkil etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zaripov L.R. Kredit-modul tizimi asosida bo'lajak texnologiya o'qituvchilari kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish. Pedagogika fanlari doktori (DSc). Diss. -T.:2023 y.-252 b.
2. Tolipov O'.Q. Oliy pedagogik ta'lim tizimida umummehnat va kasbiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari: Ped.fan. dokt. diss. - T.: 2004 y. – 314 b.
3. Haydarova O.Q. Bo'lajak kasb ta'lim o'qituvchilarini ta'lim jarayoniga texnologik yondashuvga tayyorlash: Diss. ... ped. fan. nomz. – T.: 2005. – 143 b.
4. Mannanov. J.A. Inovatsion yondashuv asosida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari. Dis. p.f.f.d. (PhD) – Toshkent, 2020. – 143 b.
5. Qo'ysinov O.A. Kompetentli yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy–pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari: Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik (DSc) diss. – Toshkent, 2019. – 200 b.